

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI



TEXNIKUM BITIRUVCHILARINI SUHBAT ASOSIDA
KIRISH IMTIHONI DASTURI VA BAHOLASH
MEZONLARI

60420100 – Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo‘yicha)

Samarqand - 2026

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta’lim muassasalarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022 yildagi 17-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqildi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2026-yil “___” -_____dagi ___-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

R.I.Mirzaev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Yuridik fakulteti dekani, yu.f.d., dotsent.

D.R.Qurbonov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Jinoiy huquqiy fanlar kafedrasi mudiri, dotsent.

Taqrizchilar:

O.Elmurodov

Samarqand viloyat sudi sudya katta yordamchisi

Sh.Xamdamov

O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar Palatasi
Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i
o‘rinbosari

KIRISH

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11- yanvardagi 17-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqildi.

Suhbat qaror bilan tasdiqlangan **"Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom** asosida o'tkaziladi.

1. Suhbat jarayonini tashkil etish va o'tkazish

Universitet rektori 10-avgustga qadar o'z buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasini tuzadi.

Suhbat komissiyasi 9 nafardan kam bo'lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysinuvi bo'yicha vazirliklar va idoralarning mas'ul xodimlari, sohaga taalluqli texnikumning malakali o'qituvchisi hamda boshqa oliy ta'lim muassasasining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchisi kiritiladi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translatsiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida uch yil universitetda saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan universitet rektori zimmasiga yuklatiladi.

Bitiruvchilarni universitetga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10-avgustdan 25-avgustgacha, universitet tomonidan belgilangan muddatda Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

Suhbat o'tkazish muddatlari suhbat jarayonlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin universitetning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular universitet bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan sanadan uch kundan kechikmay universitetda tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim.

Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

2. Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi

I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;

II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

3. Baholash mezonlari

Jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Mazkur savollar bo'yicha baholash mezonlari universitet tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlanadi hamda ularning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

Savollar universitet qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra ball belgilab boriladi va imzolanadi.

Ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi, bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

4. Apellyatsiya komissiyasi

Universitetda suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida universitetda to'g'ridan to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy ta'lim, fan va

innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va appellatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

5. Suhbat natijalari

Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda universitet rektori tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil universitetda saqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari mehnatiga haq to'lash universitet talabalariga o'quv mashg'ulotlarini olib borganlik uchun belgilangan soatbay haq to'lash shartlarida universitetning budjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

60420100 – Yurisprudensiya (faokiyat turlari bo'yicha)ta'lim yo'nalishi bo'yicha texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha savollar

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish (davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, shuningdek, ijtimoiy soha va boshqa sohalaridagi islohotlar haqida tasavvur va fikrlash qobiliyatining mavjudligi)	
T/r	Savollar
KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ	
1.	Konstitutsiyada belgilangan "Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi"ga oid normaning mazmuni nimadan iborat?
2.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega deganda nimalar tushuniladi, uning ahamiyati qanday?
3.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida "O'zbekiston – dunyoviy davlat" prinsipi mustahkamlab qo'yilgan. Buning mazmun-mohiyati nimadan iborat?
4.	O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasining mazmunmohiyati nimadan iborat?
5.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" prinsipi mustahkamlab qo'yilgan. Buning mazmun-mohiyati nimadan iborat?
6.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan tashqi siyosat prinsiplari va ularning mazmun-mohiyatini tushuntiring.
7.	Qonunchilik palatasi deputatligiga va Senat a'ziligiga saylanadigan nomzodlarga qanday talablar qo'yilgan?
8.	Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqi nima va u qanday amalga oshiriladi?
9.	Jahon tajribasida konstitutsiyalar qanday tasniflanadi va turlarga ajratiladi?
10.	Jahon tajribasida konstitutsiyalarni qabul qilish va o'zgartirish kiritishning qanday usullari mavjud?
11.	O'zbekiston Respublikasining saylov tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlarini yorit.
12.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan subyektlar kimlar?
13.	Jamoat birlashmalari tushunchasi va mazmunini izohlang.
14.	Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari deganda nima tushuniladi?

15.	Dunyo bo‘ylab keng tarqalgan saylov tizimlari majoritar, proporsional va aralash saylov tizimlarining mazmunini tushuntiring.
16.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday shaxsiy huquq va erkinliklar mustahkamlab qo‘yilgan?
17.	Mahalliy davlat hokimiyati organlari deganda nima tushuniladi?
18.	Ommaviy axborot vositalari tushunchasi va mazmunini tushuntiring.
19.	Siyosiy partiya tushunchasi va unga a‘zo bo‘lish huquqini tushuntirib bering.
20.	Siyosiy partiyaning faoliyatini to‘xtatib turish qanday tartibda amalga oshiriladi?
21.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarini tushuntiring.
22.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Xabeas korpus” aktiga oid qanday norma belgilangan?
23.	O‘zbekiston Respublikasida hokim va ularning o‘ribosarlari qanday tartibda lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi?
24.	Deputat va senator vakolatlarining muddati va ularning vakolatini muddatidan avval tugatish asoslarini yoriting.
25.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday madaniy va ekologik huquqlar mustahkamlab qo‘yilgan?
26.	Deputat va senator so‘rovi deganda nima tushuniladi?
27.	Deputatning va senatorning daxlsizlik huquqi va undan mahrum qilish tartibini tushuntiring.
28.	Kimlar Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod etib ro‘yxatga olinmaydi?
29.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Miranda qoidasi”ga oid qanday norma belgilangan?
30.	Parlamentdagi ko‘pchilik va parlamentdagi muxolifat institutlarining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
31.	Viloyatlarning va Toshkent shahrining chegaralarini o‘zgartirish qanday tartibda amalga oshiriladi?
32.	O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga umumiy tartibda qabul qilish asoslarini yoriting.
33.	Konstitutsiyada qanday siyosiy huquqlar mustahkamlab qo‘yilgan?
34.	O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo‘qotish asoslari qay hollarda yuzaga keladi?
35.	Parlament nazorati tushunchasi va uni amalga oshiruvchi subyektlarni tushuntiring.
36.	Konstitutsionalizm tushunchasi va uning mohiyatini izohlang.
37.	Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan o‘qituvchining kasbiga oid normalar va ularning mazmunini tushuntiring.
38.	Konstitutsiyaga muvofiq qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar kimlar?
39.	Konstitutsiyada yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish borasida belgilangan normalar va ularning mazmuni nimadan iborat?
40.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning qanday burchlari belgilangan?
41.	Qaysi xatti-harakatlar O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘iga nisbatan hurmatsiz munosabatda bo‘lish deb baholanadi?
42.	O‘zbekiston Respublikasida Referendumni o‘tkazish tashabbusi va referendum tayinlash huquqini tushuntiring.
43.	O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati subyektlari va obyektlari yoriting.
44.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartibini yoriting.
45.	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga nisbatan ishonchsizlik votumi berish qanday tartibda amalga oshiriladi?
46.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qanday vakolatlari mavjud?
47.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bolalar va yoshlar huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha qanday normalar belgilangan?

48.	Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan hamkorligini yoritib.
49.	Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibi qanday?
50.	Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining maqomini yoritib.
MA'MURIY HUQUQ	
1.	Ma'muriy huquqning boshqa huquq sohalari, jumladan, "Moliya huquqi", "Mehnat huquqi", "Konstitutsiyaviy huquq" dan farqli jihatlarini tahlil qiling
2.	Ommaviy xizmatlarning huquqiy tabiatini tushuntirib bering.
3.	O'zbekistonda ruxsat berish tizimini tushuntirib bering. Qonunchilikdan misollar keltiring
4.	Ma'muriy sudlar tomonidan qo'llaniladigan arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish va ish yuritishni tugatishning o'zaro farqli jihatlarini tahlil qiling
5.	"Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunga binoan jamoatchilik muhokamasining mazmunini yoritib bering
6.	"Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunga binoan jamoatchilik muhokamasining mazmunini yoritib bering
7.	Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarining qaysi biri ma'muriy faoliyatda qonuniyligni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi?
8.	Prokuratura ommaviy-ma'muriyat faoliyati ustidan nazorati hujjati sanalgan "protest" ning mazmunini tushuntirib bering
9.	O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining qo'llanilish sohasini yoritib bering.
10.	O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining ishonchlilik prinsipini yoritib bering.
11.	O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi ma'muriy organ tushunchasini yoritib bering
12.	Ma'muriy hujjatning mazmuniga nisbatan qanday talablar qo'yilgan?
13.	O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining Byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi prinsipini yoritib bering.
14.	"Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra ma'muriy ish yuritishda vakillik tushunchasini yoritib bering?
15.	O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuniga binoan ma'muriy ish yuritishda ishtirok etish imkoniyatini istisno qiluvchi holatlarni sanab bering?
16.	"Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida"gi Qonunga binoan ma'muriy ish yuritishda rad qilish masalasini tushuntirib bering?
17.	Ma'muriy ish yuritish muddatlarini tushuntirib bering?
18.	"Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida"gi qonunga ko'ra ma'muriy ishni majlisda ko'rib chiqishni keyinga qoldirish masalasini tushuntirib bering.
19.	Ma'muriy ish yuritishni tugatish masalasini tushuntirib bering.
20.	Ma'muriy nizolarni ma'muriy sudga murojaat etish orqali hal etishning huquqiy asoslarini tahlil qiling.
21.	Ma'muriy nizolarni ma'muriy organga murojaat etish orqali hal etishning huquqiy asoslarini tahlil qiling.
22.	Zamonaviy ma'muriy huquq sohasida xususiy shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sudan tashqari tartibda himoya qilish usulining mohiyati va xususiyatlari nimalardan iborat?
23.	Ma'muriy shikoyat qilish tartibi qanday normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi/
24.	Ma'muriy shikoyat qilish qanday talablarga javob berishi lozim?
25.	Ma'muriy shikoyat qilish ishtirokchilari qanday huquq va majburiyatlarga ega?
26.	Ma'muriy shikoyat qilish tartibi qanday?
27.	Ma'muriy organning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining, ular mansabdor shaxslarining qarori, harakati (harakatsizligi) ustidan ariza (shikoyat) bilan sudga murojaat etish muddatlarini tahlil qiling.

28.	Ma'muriy shikoyat bo'yicha qaror deganda nima tushunasiz?
29.	Ma'muriy nizolarni ma'muriy sudga murojaat etish orqali hal etishda ma'muriy sud tomonidan hal etiladigan ishlarni tahlil qiling.
30.	Ommaviy ma'muriyat faoliyatida qonuniylik deganda nimani tushunasiz?
31.	Qonuniylikni ta'minlash qanday choralarni o'z ichiga olishini yoritib bering
32.	Ommaviy ma'muriyat faoliyatida qonuniylikni ta'minlashning qanday uslublari mavjudligini yoritib bering.
33.	Ma'muriy nazoratni boshqa nazorat turlaridan farqini tahlil qiling.
34.	Kontrolni boshqa uslublardan farqini yoritib bering
35.	Ommaviy ma'muriyat faoliyatida qonuniylikni ta'minlash usuli sifatidagi shikoyat qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?
36.	Ommaviy ma'muriyat faoliyatida fuqarolar huquqlarini ta'minlashda xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalarning o'ri qanday?
37.	Jamoatchilik nazoratining shakllarini tushuntirib bering.
38.	Parlament nazorati obyektini tushuntirib bering.
39.	Prokuror nazorati hujjati sifatida ogohlantiruvni tushuntirib bering.
40.	Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi Qonunga ko'ra ushbu hujjat qaysi sohalarga tatbiq etilmaydi?
41.	Davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar nimalardan iborat?
42.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi davlat fuqarolik xizmati sohasidagi vakolatlarini tushuntirib bering
43.	Davlat fuqarolik xizmatchisi qanday huquqlarga ega?
44.	Davlat fuqarolik xizmatchilarining majburiyatlarini amaliy misollar bilan tushuntirib bering
45.	Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalarida
46.	Davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish shartlarini tahlil qiling
47.	Davlat fuqarolik xizmatida rotatsiya va uning maqsadini tushuntirib bering
48.	Davlat fuqarolik xizmatchisiga nisbatan intizomiy jazo choralarning qo'llanilishi asoslari, tartibini tahlil qiling

Ixtisoslikni tanlashda motivatsiya (huquqshunos kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish bildirish)	
T/r	Savollar
DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI	
1.	Huquqbuzarlik subyektiv tomonining zaruriy belgisini va uning tarkibiy elementlarini tushuntirib bering.
2.	Nojo'ya ish ko'rinishidagi huquqbuzarlik qaysi turdagi huquqbuzarliklarni qamrab oladi. Ularning har biri haqida batafsil ma'lumot bering.
3.	Huquqbuzarlik tushunchasiga ta'rif bering va uning asosiy belgilari haqida fikr yuriting.
4.	Huquqiy munosabatlar tushunchasiga ta'rif bering va ularga misollar keltiring.
5.	Huquqiy munosabatlarni yuzaga keladigan subyektiv huquq va yuridik majburiyat tushunchalariga ta'rif bering va amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
6.	Huquqiy davlat tushunchasini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida tahlil qiling
7.	Huquqiy prezumpsiyani amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
8.	O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi shaklining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
9.	Huquq ustunligi konsepsiyasi mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
10.	Davlat boshqaruvining shakli sifatida monarxiyaning o'ziga xos xususiyatlari va turlarini tahlil qiling hamda misollar keltiring.
11.	Norasmiy sharhlashning turlarini tushuntirib bering va fikringizni misollar bilan asoslang.
12.	Faol huquqiy xulq-atvor nima? Amaliy misollar bilan tushuntirib bering.

13.	Sust huquqiy xulq-atvor nima? Savolga javoblaringizni amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
14.	Huquq tizimi va qonunchilik tizimi tushunchalarini tahlil qilish orqali ularning farqli jihatlarini tushuntirib bering.
15.	Moddiy huquq va protsessual huquqning o'zaro nisbatini yoritib bering.
16.	Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishning bir turi bo'lgan inkorporatsiya haqida ma'lumot bering va uning tizimlashtirishning boshqa turlaridan farqli jihatlarini aytib bering.
17.	Huquqiy munosabat subyekti elementlarini batafsil yoritib bering.
18.	Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquqning o'zaro farqi jihatlarini tahlil eting.
19.	Jinoyat tarkibi elementlari va ularning belgilarini tahlil eting.
20.	Doktrinal sharhlash deganda nima tushuniladi?
21.	Davlatning ijtimoiy funksiyasi mazmun-mohiyatini yoritib bering.
22.	Huquqdagi bo'shliqlar va ularni bartaraf qilish yo'llarini muhokama qiling.
23.	Huquqiy normani tizimli (sistemali) sharhlash usuli deganda nima tushuniladi?
24.	Norasmiiy sharhlash deganda nima tushuniladi?
25.	Huquq normalarini sharhlash deganda nima tushuniladi?
26.	Kazual sharhlash deganda qanday sharhni tushunasiz?
27.	Huquq normasini sharhlashning tarixiy-siyosiy usuli deganda nima tushuniladi?
28.	Norasmiiy sharhlash va uning turlarini bayon qiling?
29.	Huquqiy modellashtrish funksiyasi deganda nima tushuniladi?
30.	Huquqiy davlat deganda nima tushuniladi?
31.	Bugungi kunda davlat funksiyalarining rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni misollar bilan tushuntiring.
32.	Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning zarur sharti sifatida huquqiy tarbiyaning ahamiyatini tushuntiring.
33.	Hokimiyatlar bo'linishi tamoyili mazmunini tushuntiring.
34.	Yuridik faktlar tushunchasiga ta'rif bering va ularga misollar keltiring.
35.	Huquq manbalaridan biri bo'lgan, huquqiy pretsedentning nazariy tushunchasini amaliy misollar orqali tahlil qiling.
36.	Normativ-huquqiy hujjat – huquqning manbasi sifatida uning tushunchasini tahlil qilgan holda, boshqa huquq manbalaridan farqli xususiyatlarini sanab bering.
37.	Huquqiy oila deganda nima tushuniladi?
38.	Normativ va xalqaro shartnomalarning nazariy jihatlarini batafsil tahlil qiling.
39.	Normativ-huquqiy hujjatlar vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilish doirasiga ega bo'ladi. Har biriga to'xtalib, amaliy misollar orqali tahlil qiling.
40.	Jamiyatda o'sib kelayotgan yosh avlodni huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Huquqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
41.	Huquq ijodkorligi tushunchasi va turlarini misollar yordamida tahlil qiling
42.	Xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikda implementatsiya qilish masalalarini tahlil qiling.
43.	Qonunchilik tashabbusi huquqini nazariy va huquqiy jihatdan tahlil qiling.
44.	Sanksiya nima uning turlarini ochib bering.
45.	Huquq normasi nima va uning belgilarini tushuntirib bering.
46.	Huquqiy ong saviyasiga, ya'ni darajasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
47.	Dispozitsiya nima, ung ta'rif bering.
48.	Tavsiflovchi dispozitsiya nima? Firlaringizni misollar bilan asoslantiring.
49.	Kumulyativ sanksiya nima? Sodir etilgan jinoyat uchun qo'shimcha jazo berilishi mumkinmi?
50.	Fuqarolik jamiyati tushunchasi va belgilarini tushuntiring.

Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

T/r	Savollar
HUQUQIY KO‘NIKMALAR VA METODOLOGIYA	
1.	Shaxslararo munosabatlar deganda nimani anglashimiz kerak, bu bilan qaysi shaxslar nazarda tutilmoqda?
2.	“Soft skills”ning “Hard skills”dan farqi nimalardan iborat?
3.	Mutaxassisni ishga qabul qilishda uning aynan “soft skills” ko‘nikmalariga ko‘proq e’tibor qaratilishining sababi nimada, deb o‘ylaysiz?
4.	Maqsadni to‘g‘ri shakllantirishning eng asosiy talablarini izohlab bering.
5.	Maqsad qo‘yishda “SMART” va “SMARTER” texnologiyalarining amaliy ahamiyatini misollar bilan izohlang.
6.	Vaqtни boshqarish ko‘nikmasi va undan foydalanishning afzalliklari nimalarda namoyon bo‘ladi?
7.	Ishlarni qanday tartibda rejalashtirgan foydaliroq? Xotiradami yoki qog‘ozga tushirilganimi?
8.	“ABCDE” jadvali nima uchun kerak?
9.	Qanday vaqtни oraliq vaqt sifatida tushunishimiz kerak?
10.	Majburiy samaradorlik qonuni nima?
11.	“Yo‘q” deyishingiz qanday qilib vaqtingizni tejaydi?
12.	Mijozlar huquqshunosdan nimani kutadi?
13.	Tashabbuskorlik nima uchun muhim?
14.	Tashabbuskor insonning qanday belgilari bor? Sizda shu belgilar mavjudmi?
15.	Tashabbuskorlik fazilatining huquqshunosning professional faoliyatdagi ahamiyati nimada namoyon bo‘ladi?
16.	Kreativlik nimaga kerak?
17.	Kreativlikni rivojlantirishning 3 ta asosiy qoidasini izohlang.
18.	Kreativlikni qanday rivojlantirish mumkin?
19.	Huquqshunos uchun kreativlik ko‘nikmasi qanday vaziyatlarda kerak bo‘ladi?
20.	Rezyume nima va u nima uchun kerak?
21.	Prezentatsiyadan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
22.	Prezentatsiya uslublari deganda nimani tushunasiz?
23.	Slaydlarda nima bo‘lmasligi kerak?
24.	Prezentatsiyaga qiziqarli nom qanday tanlanadi? Har bir talab bo‘yicha qiziqarli nom toping.
25.	Slaydga rasm qo‘yishda nimalarga e’tibor berish kerak?
26.	Prezentatsiya muvaffaqiyatining 3 omilini izohlang.
27.	Prezentatsiyaga tayyorlanishni nimadan boshlash kerak?
28.	Prezentatsiyada eng ko‘p uchraydigan xatolar qaysilar?
29.	Notiq qanday vazifani amalga oshiradi?
30.	Omma oldidagi nutq kishidan qanday qoidalarga amal qilishni talab etadi?
31.	Omma qarshisida nutq so‘zlashga qanday tayyorlanish kerak?
32.	Chiroyli nutq so‘zlashning qanday uslublari farqlanadi?
33.	Omma oldidagi nutq qanday qismlardan tashkil topgan?
34.	Omma oldidagi nutqning ta’sirini qanday omillar pasaytiradi?
35.	Boshqaruv usuliga ko‘ra liderlikning qanday tiplari mavjud. Boshqaruv usullari ichida qaysi bir usul eng samaralisi hisoblanadi?
36.	Jamoa ishini tashkil etishning afzalliklari va kamchiliklari nimalarda ko‘rinadi?
37.	Samarali jamoani tuzishda qanday omillar yordam beradi?

38.	Qanday qilib jamoaviy ishni to'g'ri tashkil qilish kerak?
39.	Samarali jamoa a'zosi bo'lish uchun qanday ko'nikma va fazilatlar talab etiladi?
40.	Jamoa ishining muvaffaqiyati qanday omillarga bog'liq?
41.	Haqiqiy lider qanday bo'lishi kerak?
42.	Rahbar amalga oshiradigan boshqaruv funksiyalarini tushuntiring.
43.	Qanday qilib lider bo'lish mumkin?
44.	Liderlik ko'nikmasini qanday rivojlantirish mumkin?
45.	Imijni yaratishdan maqsad nima?
46.	Reputatsiya nima va uning qanday turlari bor?
47.	Huquqshunos uchun qanday axloqiy sifatlar muhim hisoblanadi?
48.	Kasb etikasining o'ziga xosligi nimada? Yurist kasb etikasining eng muhim xususiyatlarini tavsiflang.
49.	Empatiya nima va u huquqshunos uchun qay darajada muhim?
50.	Tanqidiy fikrlash ko'nikmasining ahamiyati nimada?
DAVLAT TILIDA ISH YURITISH	
1.	O'zbek tili – davlat tili. O'zbek tilining rivojlanishi nimalarga bog'liqligini izohlang.
2.	Til va jamiyatning o'zaro aloqadorligini qanday tushunasiz? Izohlang.
3.	Til va nutq o'rtasidagi tafovutni aytib bering.
4.	Hujjat matni aniq, ixcham, lo'nda, mazmuniy to'liq kabi talablarga javob berishi lozim. Bu belgilari qaysi uslubga xos?
5.	Hujjat matnlarida qaysi tinish belgilari faol qo'llanadi va qanday maqsadda? Qanday tinish belgilaridan foydalanilmaydi?
6.	O'zbek adabiy tilida qanday asosiy nutq uslublari bor? Sanang, izohlang. Rasmiy uslubga ta'rif bering.
7.	Matn va uning turlari haqida ma'lumot bering.
8.	Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra qanday guruhlargaga bo'linadi?
9.	Guvohnoma qanday hujjat? Ta'rif bering.
10.	Yo'riqnoma qanday hujjat?
11.	Lavozim yo'riqnomasi qanday hujjat?
12.	Buyruq qanday hujjat? Uning qanday asosiy turlari bor?
13.	Hujjat tayyorlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
14.	“Davlat tili haqida”gi Qonunning qaysi moddalarida ish yuritishning tilga aloqador jihatlari qoidalashtirilgan?
15.	Tashkiliy hujjatlar deb nimaga aytiladi? Ular nimalarni belgilab beradi?
16.	Tashkiliy hujjatlarga qanday hujjatlar kiradi?
17.	Tarjimayi hol qanday hujjat? Tarjimayi hol hujjatiga ta'rif bering, tarkibiy qismlarini sanang.
18.	Bildirishnoma qanday hujjat? Bildirishnoma hujjatiga ta'rif bering, tarkibiy qismlarini sanang.
19.	Qanday ish yuritish qog'ozi xizmat yozishmalari deyiladi? Xizmat xatlariga qanday yozishma turlari kiradi?
20.	Xizmat yozishmalarida nimalar aks etadi? Da'vo xati qanday hujjat?
21.	Majlis bayonnomasi qanday hujjat? Bayonnomada nimalar aks etadi?
22.	Hisobot qanday hujjat?
23.	Amalga oshirilgan ishlar hisobotining maqsadi nima va ularda nimalarni yozish kerak?
24.	Dalolatnoma nima?
25.	Tavsifnoma nima? Tavsifnomaning qanday zaruriy qismlari bor?
26.	Hujjatchilik tarixi e
27.	Ish yuritish hujjatlarining qanday turlarini bilasiz?
28.	Hujjatlardagi eng muhim zaruriy qismlar va ularni rasmiylashtirish haqida nimalarni bilasiz?

29.	Rasmiy uslubning qanday asosiy belgilari bor? Sanang, izohlang.
30.	Rasmiy uslubning leksik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
31.	Murojaat xatlari va ularning turlari haqida ma'lumot bering.
32.	Ariza va shikoyat xatlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
33.	Da'vo, so'rov va iltimos xatlari haqida ma'lumot bering.
34.	Javob xatini talab qilmaydigan xatlarga nimalar kiradi?
35.	Axborot va kafolat xatlarining farqli tomonlari nimada?
36.	Rasmiy va shaxsiy xatlarning turlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
37.	Bildirishnoma va uning uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
38.	Ishonchnoma va uning uslubiy xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
39.	Tilxat qanday hujjat? Tilxatning asosiy zaruriy qismlari haqida ma'lumot bering.
40.	Hujjatlar matnida til birliklarini qo'llashga doir qanday o'ziga xosliklar bor?

Yurisprudensiya sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi (professional ta'limi darajasida yurisprudensiya sohasida o'z fikrini bayon qilish va tahlil qilish ko'nikmalarining mavjudligi)	
T/r	Savollar
FUQAROLIK HUQUQI	
1.	Fuqarolik qonun hujjatlari nimalarga asoslanadi, ular bilan qanday munosabatlar tartibga solinadi?
2.	Qaysi hollarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda analogiya (o'xshashlik) qo'llaniladi?
3.	Fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining qanday asoslari mavjud?
4.	Fuqarolik huquqlari qanday yo'llar bilan himoya qilinadi?
5.	Fuqarolik huquqida jismoniy shaxs tushunchasiga ta'rif bering.
6.	Huquq layoqati deganda nimani tushunasiz?
7.	Muomala layoqati nima?
8.	O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati haqida tushuntirib bering.
9.	Emansipatsiya nima?
10.	O'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati deganda nimani tushunasiz?
11.	Qanday hollarda fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb toppish mumkin?
12.	Fuqaroning muomala layoqatini cheklash qanday hollarda amalga oshiriladi?
13.	Vasiylik va homiylik deganda nimani tushunasiz?
14.	Fuqaroni qanday hollarda bedarak yo'qolgan deb topish mumkin?
15.	Fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
16.	Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?
17.	Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelishining oqibatlari nimalardan iborat?
18.	Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish qoidalari haqida nimalarni bilasiz?
19.	Yuridik shaxs tushunchasiga ta'rif bering.
20.	Yuridik shaxslarning turlari haqida nimalarni bilasiz?
21.	Jamoat birlashmalari nima?
22.	Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, mol-mulk qanday turlarga bo'linadi?
23.	Ko'chmas mol-mulkni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi qanday?
24.	Xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar nima?
25.	Shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne'matlar deganda nimani tushunasiz?

26.	Bitimning og'zaki shakliga ta'rif bering.
27.	Bitimning yozma shakliga ta'rif bering.
28.	Bitimning haqiqiy emasligi va uning oqibatlari deganda nimani tushunasiz?
29.	O'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi deganda nimani tushunasiz?
30.	Yanglishish ta'sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi deganda nimani tushunasiz?
31.	Ishonchnoma va uning shakliga qo'yilgan talablar haqida nimalarni bilasiz?
32.	Notarial tasdiqlangan ishonchnomalarga tenglashtirilgan ishonchnomalar qaysilar?
33.	Da'vo muddati nima va uning o'tishi qanday hollarda to'xtatiladi?
34.	Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablarni sanang.
35.	Mulk huquqining subyektlari kimlar bo'lishi mumkin?
36.	Servitut huquqi nima?
37.	Operativ boshqarish huquqi deganda nimani tushunasiz?
38.	Xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlarining vujudga kelishi va bekor bo'lishini tushuntirib bering.
39.	Egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddatni tushuntirib bering.
40.	Egasiz ashyo deganda nimani tushunasiz?
41.	Topilma nima?
42.	Xazina deganda nimani tushunasiz?
43.	Mulk huquqining bekor bo'lish asoslarini tushuntirib bering.
44.	Natsionalizatsiya va rekvizitsiya deganda nimani tushunasiz?
45.	O'zboshimchalik bilan imorat qurish va uning oqibatlari deganda nimani tushunasiz?
46.	Respublika mulkiga ta'rif bering.
47.	Munitsipal mulk deganda nimani tushunasiz?
48.	Umumiy mulk tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari nimalardan iborat?
49.	Majburiyat tushunchasi va uning vujudga kelish asoslarini tushuntirib bering.
50.	Majburiyatni bajarish joyi deganda nimani tushunasiz?

FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI	
1.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishni qanday turlari bor?
2.	Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga qaysi ishlar taalluqli?
3.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda ashyoviy dalillarni saqlash va qaytarib berish tartibini tushuntiring?
4.	Fuqarolik protsessida taraflar deganda kimlar tushuniladi?
5.	Fuqarolik sudlari tomonidan beriladigan sud buyrug'i nima?
6.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik deganda nima tushuniladi?
7.	Fuqaroli sud ishlarini yuritishda birgalikda ishtirok etish?
8.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual huquqiy vorislik?
9.	Qachon sud ishni boshqa sudga o'tkazadi?
10.	Fuqarolik protsessual muomala layoqatini tushuntiring?
11.	Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar kimlar?
12.	Sudga murojaat qilish shaklini tushuntiring?
13.	Qonuniy vakillik deganda nimani tushunasiz?
14.	Kimlar sudda vakil bo'la olmaydi?
15.	Fuqarolik sud hujjatlarini turlarini ayting?
16.	Sud hal qiluv qarori mazmunini tushuntiring?
17.	Hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirishini tushuntiring?
18.	Fuqarolik sudida qachon ish sirtidan ko'riladi?

19.	Sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko'rib chiqiladigan ishlar qaysilar?
20.	Isbotlash vositalarini sanab bering?
21.	Sud xarajatlari tushunchasi va uning turlarini tahlil qiling.
22.	Sud buyrug'ining sud hal qiluv qaroridan qanday farqli jihatlari mavjud?
23.	Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarga nimalar kiradi?
24.	Sud ishni ko'rish vaqtida qanday protsessual majburlov choralarni qo'llaydi?
25.	Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda sud buyrug'i qaysi talablar bo'yicha beriladi?
26.	Sud buyrug'i berish tartibi va muddatini tushuntiring.
27.	Sud buyrug'ining sud hal qiluv qaroridan qanday farqli jihatlari mavjud.
28.	Protsessual muddatlarni tushuntiring?
29.	Ish yuritishni tugatish asoslari, tartibi va huquqiy oqibatlarini tahlil qiling.
30.	Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish asoslari va huquqiy oqibatini tushuntiring.
31.	Arizani qaytarish asoslari va uning huquqiy oqibatlarini tahlil qiling.
32.	Sudga ariza taqdim etish tartibini tushuntiring?
33.	Fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish muddatlarini ayting.
34.	Sud qaysi hollarda ish muhokamasini keyinga qoldirishi mumkin?
35.	Sirdan ish yuritish asoslari va tartibini tushuntiring?
36.	Apellatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'rib chiqadigan sudlarga to'xtalib o'ting?
37.	Apellyatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) huquqi?
38.	Apellatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati?
39.	Apellatsiya instansiyasi sudining vakolatlari?
40.	Birinchi instansiya sudi ajrimlari ustidan xususiy shikoyat berish va protest keltirish tartibi va muddati qancha?
41.	Kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'radigan sudga to'xtalib o'ting.
42.	Kassatsiya shikoyati (protesti) berish tartibi va muddatini tushuntiring?
43.	Kassatsiya shikoyati (protesti)ning mazmunini tushuntiring?
44.	Kassatsiya shikoyatini (protestini) qaytarish asoslarini ayting?
45.	Kassatsiya instansiya sudining vakolatlari?
46.	Taftish tartibida shikoyat qilish (protest keltirish) huquqi?
47.	Taftish tartibida shikoyatlarni (protestlarni) ko'radigan sudlar qaysilar?
48.	Yangi ochilgan holatlar bo'yicha sud hujjatlarini qayta ko'rish asoslarini ayting?
49.	Sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'radigan sudlar qaysilar?
50.	Ijro varaqasi berish tartibini tushuntiring?
MEHNAT HUQUQI	
1.	Xodimni ishdan chetlashtirish tushunchasi va asoslarini yoritib bering.
2.	Mehnat shartnomasini o'zgartirish tushunchasi va asoslarini yoritib bering.
3.	Ish beruvchi qanday hollarda xodimga yetkazilgan ziyonning o'rnini qoplashi shart?
4.	Xodim qaysi hollarda ish beruvchining oldida to'liq moddiy javobgar bo'ladi?
5.	Xizmat safari tushunchasi va xizmat safari vaqtida to'lanishi lozim bo'lgan xarajatlar turlarini ko'rsatib bering.
6.	Ish vaqtining tushunchasi va uning turlarini yoritib bering.
7.	Tungi vaqtdagi ish deganda nima tushuniladi? Tungi vaqtdagi ishga jalb qilish qoidalarini yoritib bering.
8.	Ish vaqtidan tashqari ish deganda nimani tushunasiz hamda bunday ishga jalb qilish tartibi qandayi?
9.	To'liqsiz ish vaqtini qisqartirilgan ish vaqtidan farqlarini yoritib bering.
10.	Ish vaqti rejimi deganda nimani tushunasiz va uni qanday turlarini bilasiz?
11.	Qanday hollarda o'rindoshlik asosida ishlashga yo'l qo'yilmaydi?
12.	Qanday hollarda mehnat shartnomasi muddatli tuzilishi lozim?

13.	Ishga qabul qilishga necha yoshdan yo‘l qo‘yiladi?
14.	Qanday hollarda ishga qabul qilish qonunga xilof ravishda rad etilgan hisoblanadi?
15.	Ishga qabul qilish chog‘ida qanday hujjatlar talab etiladi?
16.	Xizmat tekshiruvi tushunchasi va uni o‘tkazish muddatini yoritib bering.
17.	Har yilgi mehnat ta’tili tushunchasi va turlarini yoritib bering.
18.	Birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta’tilini berish tartibini yoritib bering.
19.	Har yilgi mehnat ta’tilini uzaytirish yoki uni boshqa muddatga ko‘chirish asoslarini yoritib bering.
20.	Ish haqi saqlanmaydigan ta’til tushunchasi va uni berishning umumiy tartibini yoritib bering.
21.	Mehnatga oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplarini sanab bering.
22.	Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikning amal qilish sohasini yoritib bering.
23.	Mehnat huquqlarini himoya qilishning asosiy usullarini aytib bering.
24.	Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarining subyektlarini sanab bering?
25.	Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarning yuzaga kelishi asoslarini sanab bering.
26.	Har yilgi mehnat ta’tili tushunchasi va turlarini yoritib bering.
27.	Bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko‘p yillik ish staji uchun beriladigan har yilgi qo‘shimcha mehnat ta’tilini yoritib bering.
28.	Intizomiy jazo choralarini qo‘llash tartibini tushuntirib bering.
29.	Intizomiy jazoni qo‘llash muddatlarini yoritib bering.
30.	Mehnat uchun rag‘batlantirishni yoritib bering.
31.	Mehnat shartnomasini bekor qilish tushunchasi va asoslarini yoritib bering.
32.	Mehnat shartnomasini taraflarning kelishuviga ko‘ra bekor qilish tartibini tushuntirib bering.
33.	Muddatli mehnat shartnomasi muddatidan oldin bekor qilinganda neustoyka to‘lashga oid asosiy qoidalarni yoritib bering.
34.	Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga olib kelishi mumkin bo‘lgan mehnat majburiyatlarining bir marta qo‘pol ravishda buzilishlari ro‘yxati qanday hujjatlar bilan belgilanishi mumkin?
35.	Qaysi hollarda mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilish taqiqlanadi?
36.	Yakka tartibdagi mehnat nizolari qaysi organlar tomonidan ko‘rib chiqiladi?
37.	Qaysi yakka tartibdagi mehnat nizolari bevosita sudga ko‘rib chiqiladi?
38.	Mehnat shartnomasini xodim tashabbusiga ko‘ra bekor qilish haqida nimalarni bilasiz?
39.	Mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi xodimga qanday intizomiy jazo choralarini qo‘llashi mumkin?
40.	Mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodim bilan qanday hisob-kitob qilinadi?
41.	Mehnat shartnomasining tushunchasi yoritib bering. Mehnat shartnomasining taraflari bo‘lib kimlar hisoblanadi?
42.	Mehnat shartnomasi qanday muddatlarga tuziladi?
43.	Qarindoshlarning birga ishlashiga mehnat qonunchiligida qanday cheklov o‘rnatilgan?
44.	Ishga qabul qilishda kimlarga dastlabki sinov belgilanmaydi?
45.	Ish beruvchi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishi shart bo‘lgan shaxslar doirasini sanab bering.
46.	Mehnat shartnomasini taraflarning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra bekor qilish asoslarini sanab bering.
47.	Ish haqi qanday muddatlarda to‘lanishi lozim?
48.	Qanday hollarda xodimning yozma roziligidan qat’i nazar ish haqidan ushlab qolinadi?

49.	Yakka tartibdagi mehnat nizosining ko‘rib chiqilishi uchun qanday muddatlarda sudga murojaat qilishi mumkin?
50.	Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori kim tomonidan belgilanadi va u hozirda qanchani tashkil qilmoqda?
JINOYAT HUQUQI	
1.	Jinoyat qonunining vaqt bo‘yicha amal qilish masalasini yoritib bering.
2.	Jinoyat va ijtimoiy xavfli qilmish tushunchalarini ayting.
3.	Jinoyatlarni ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra tasniflashda qanday mezon asos qilib olingan?
4.	Jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra qanday tasniflanadi?
5.	Jinoyatlarning predmeti nima va jinoyat ob‘ektidan farqi nima. O‘zbekiston Respublikasi JK dan amaliy misollar bilan farqli jihatlarini tushuntirib bering.
6.	Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi va huquqqa xilofligi kabi belgilarining o‘zaro nisbati qanday?
7.	Jinoyat ob‘ektiv tomoni fakultativ belgilarini jinoyatni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati nimalarda ifodalanadi?
8.	Jinoyat tarkibi sub‘ektiv tomonining fakultativ belgilarining ahamiyati va ularning roli qanday?
9.	Jinoyatlarni sifat ko‘rsatkichlari va miqdor ko‘rsatkichlariga ko‘ra tasniflash nimani anglatadi?
10.	Jinoyat motivi va maqsadining jinoyat-huquqiy ahamiyati nimadan iborat? Ularning farqi nimada?
11.	Yuridik va faktik xatolarni aytib bering.
12.	Harakatsizlikning jinoyat-huquqiy ahamiyatini aniqlash uchun qanday belgilari aniqlanishi kerak?
13.	Tamom bo‘lmagan jinoyatning qanday turlari mavjud va ularning jinoyat-huquqiy mohiyati nimada?
14.	Zaruriy mudofaa hamda oxirgi zaruratning farqli jihatlarini tahlil qiling.
15.	Jinoiy oqibatlarining turlarini ayting. Jinoiy oqibatlar turlarini amaliy misollar bilan asoslab bering?
16.	Davomli jinoyatlar va ularning takroran sodir etilgan jinoyatlardan farqli jihatlarini tahlil qiling.
17.	Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish asoslari nimalardan iborat?
18.	Aybsiz holda zarar yetkazish mazmunini yoritib bering.
19.	Jinoiy jazo tushunchasi va maqsadini yoritib.
20.	Jinoiy jazo shakllari: asosiy, qo‘shimcha va aralash turdagi jazolarni bayon qiling.
21.	Aqli norasolikning yuridik (psixologik) va tibbiy mezonlari nimalardan iborat?
22.	Tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash masalasini yoritib.
23.	Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik doirasi haqida gapiring?
24.	Maxsus sub‘ektning belgilarini aytib bering. Uni umumiy sub‘ektdan nima farqli jihatlar bor?
25.	Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va turlarini tahlil qiling?
26.	Jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish tartibi qanday?
27.	Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning shartlarini yoritib?
28.	Jazoni ijro etish muddatlari o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishning asoslarini yoritib?
29.	Shartli hukm qilish asoslari va shartlari nimalardan iborat?
30.	Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish kimlarga va qanday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga qo‘llanilmaydi?

31.	Jinoyatga daxldorlik masalasini yoriting?
32.	Sud jazo tayinlash chog'ida ushlab turishning, qamoqqa olishning yoki uy qamog'i vaqtini qanday hisoblaydi?
33.	Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilishning qanday asoslari mavjud?
34.	Sudlanganlik holatining tugallanish yoki sudlanganlikni olib tashlash asoslari va tartibini yoriting?
35.	Voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo va majburlov choralarining qanday turlari mavjud?
36.	Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlardan biri bo'lgan jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish mazmunmohiyatini yoritib bering?
37.	Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish tushunchasi va belgilari.
38.	Jinoyatga suiqasd qilish tushunchasi va turlari
39.	Ekssess bajaruvchi haqida ma'lumot bering.
40.	Jinoyatga daxldorlik tushunchasi va uning turlari
41.	Jabrlanuvchining o'lishiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish hamda qasddan odam o'ldirish jinoyatlarini o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini tushuntirib bering?
42.	Jinoyat kodeksi 110-moddasida javobgarlik belgilangan qiynash jinoyati uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlarini muhokama eting?
43.	Genotsid jinoyati tushunchasi, yuridik tahlili hamda javobgarlikni keltirib chiqaruvchi asoslarini muhokama eting?
44.	Zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun jinoiy javobgarlik masalasini muhokama eting?
45.	Yolg'on xabar berish va yolg'on guvohlik berish jinoyatlari uchun javobgarlikning o'zaro farqlarini muhokama eting?
46.	Mayda bezorilik va bezorilikning asosiy farqlovchi belgisini tushuntiring.
47.	Talunchilik va bosqinchilik jinoyatlarining asosiy farqlovchi jihati nimada?
48.	Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining kontrabanda jinoyatidan asosiy farqlovchi belgisini tushuntiring.
49.	Mansab soxtakorligi va hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish jinoyatlarining asosiy farqlovchi jihati nimada va mazkur jinoyatlarni jinoyat tarkibiga ko'ra farqlang.
50.	Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik (JK 116-modda) va ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish (JK 111-modda), ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish (JK 102-modda) larning asosiy farqlovchi jihatini tahlil qiling.
JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQI	
1.	Jinoyat-protsessual qonunchiligining vaqt, shaxs, hudud bo'yicha amal qilishini tushuntiring
2.	Jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish tartibini tushuntirib bering.
3.	Eksperiment tergov harakatini o'tkazish tartibi va unga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?
4.	Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish qay tartibda amalga oshiriladi?
5.	Sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishini tushuntirib bering.
6.	Yuzlashtirish tergov harakatini o'tkazish asoslari va tartibini tushuntirib bering?
7.	Dastlabki tergovni to'xtatish asoslari va tartibini tushuntirib bering?
8.	Ushlab turish asoslari va tartibini tushuntirib bering?
9.	Dalillarni qayd etishda yordamchi usullardan foydalanish tartibini tushuntirib bering?
10.	Jinoyat ishlari yuritiladigan til prinsipi va uning mazmunini tushuntirib bering?
11.	Sudyalarning mustaqilligi deganda nimani tushunasiz?
12.	Sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsipining manmun-mohiyatini tushuntirib bering?
13.	Aybsizlik prezumpsiyasi deganda nimani tushunasiz?

14.	Protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqini tushuntirib bering?
15.	Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari nimalardan iborat?
16.	Jinoyat protsessi funksiyalari va ularning ahamiyatini tushuntirib bering?
17.	Jinoyat ishini qo'zg'atish sabablari va asoslarini tushuntirib bering?
18.	Jinoyat to'g'risidagi ariza va xabarlariga qo'yilgan talablarni tushuntirib bering?
19.	Jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari ishtirokini tushuntirib bering.
20.	Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish asoslarini bayon eting.
21.	Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash asoslarini bayon qiling.
22.	Himoyachidan voz kechish tartibini tushuntirib bering.
23.	Alohida toifadagi jinoyat ishlariga qaysi toifadagi ishlar kiradi?
24.	Voyaga yetmagan shaxslarning jinoyatlari haqidagi ishlarda kimlarning ishtirok etishi shart?
25.	Jinoyat ishlarida himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan hollarni tushuntirib bering?
26.	Ayblash va hukm qilish uchun asoslarni tushuntirib bering?
27.	Isbot qilish ishtirokchilariga kimlar kiradi?
28.	Protsessual qonunchilikda belgilangan qoidalarga ko'ra isbot qilishda taqiqlangan holatlarni tushuntirib bering?
29.	Dalillarning maqbul emaslik shartlarini tushuntirib bering?
30.	Guvoh va jabrlanuvchi tariqasida so'roq qilinishi mumkin bo'lmagan shaxslarga kimlar kiradi?
31.	Tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish tartibi va asoslarini tushuntirib bering?
32.	Himoyachining, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar yoki fuqaroviy javobgar vakilining ishda ishtirok etishiga monelik qiladigan holatlarni tushuntirib bering?
33.	Jinoyat protsessida qanday fuqaroviy da'volar ko'riladi?
34.	Qisman reabilitatsiya etish asoslarini tushuntirib bering?
35.	Dalil tushunchasi va uning turlari haqida ma'lumot bering?
36.	Dalillarga baho berish tartibini tushuntirib bering?
37.	Qo'shimcha so'roq asoslarini tushuntirib bering?
38.	Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arzning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering?
39.	Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini tugatish yoki o'zgartirish tartibi haqida fikr yuriting.
40.	Jinoyat ishi bo'yicha yarashuv tartibi va talablari haqida ma'lumot bering?
41.	Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvning mazmunini yoriting.
42.	Sud majlisida jinoyat ishini muhokama qilish muddatini tahlil qiling.
43.	Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish uchun asoslarini tushuntirib bering?
44.	Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv o'tkazish asoslarini tushuntirib bering?
45.	Dastlabki tergov muddatlarini tahlil qiling.
46.	Tergov harakatlarini o'tkazishda xolislarning ishtirokini tahlil qiling.
47.	Mol-mulkni xatlash asoslari va tartibini tushuntirib bering.
48.	Taftish tayinlash asoslarini tahlil qiling
49.	Narsa va hujjatlarni taqdim qilish tergov harakatining mazmunini izohlang.
50.	Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilishning o'ziga xos jihatlarini tushuntirib bering?
SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR	
1.	O'zbekiston Respublikasi sud tizimi haqida aytib bering.
2.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi vakolatlarini aytib bering.
3.	Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega subyektlar haqida ma'lumot bering.
4.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorining yuridik kuchi haqida ma'lumot bering.

5.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi va tuzilishini aytib bering.
6.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining vakolatlarini tushuntirib bering.
7.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi faoliyatini muhokama qiling.
8.	Sud ishlari yuritiladigan til haqida nimalarni bilasiz?
9.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlislarida kimlar ishtirok etishi mumkin?
10.	Qanday turdagi ishlar harbiy sudlar sudloviga tegishli hisoblanadi?
11.	Sudyalikka nomzodlarga qo'yilgan talablarni aytib bering.
12.	Sudyaning vakolat muddatlari haqida ma'lumot bering.
13.	Sudyalik lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi va uni uzaytirish tartibini aytib bering.
14.	Sudyaning vakolatlarini to'xtatishga sabab bo'ladigan holatlarini aytib bering.
15.	O'zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy kengashi faoliyati haqida ma'lumot bering.
16.	O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tarkibi va uni shakllantirish tartibini tushuntirib bering.
17.	Sudyalik lavozimiga birinchi marta tayinlanadigan sudyalarni tanlashning asosiy mezonlarini tushuntirib bering.
18.	O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari haqida ma'lumot bering.
19.	Prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablarni aytib bering.
20.	Prokuror nazorat hujjatlarini sanab bering.
21.	Prokuror nazorat hujjati hisoblangan protest haqida aytib bering.
22.	Prokuror nazorat hujjati hisoblangan taqdimnoma haqida aytib bering.
23.	Prokuror nazorat hujjatlari hisoblangan qaror va ariza haqida aytib bering.
24.	O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
25.	Prokuratura organlarida xizmatni o'tash bilan bog'liq cheklovlar haqida ma'lumot bering.
26.	Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
27.	Prokuratura organlarining tizimi haqida ma'lumot bering.
28.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori kim tomonidan lavozimga tayinlanadi va uni tayinlash tartibi qanday?
29.	O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunida belgilangan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi masalasini aytib bering?
30.	O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari nimalardan iborat.
31.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari haqida ma'lumot bering.
32.	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda uning hududiy bo'linmalari haqida ma'lumot bering.
33.	Sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning ishtiroki haqida ma'lumot bering.
34.	Davlat xavfsizlik xizmati tizimini tushuntirib bering.
35.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tizimi qanday?
36.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining vazifalariga nimalar kiradi?
37.	Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
38.	Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qanday prinsiplardan iborat?
39.	Ichki ishlar organlarining tizimi qanday tuzilmalardan iborat?
40.	Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o'qotar qurolni qo'llash shartlarini tushuntirib bering.
41.	Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilish tartibini tushuntiring.
42.	Ichki ishlar organi xodimini xizmatdan bo'shatish tartibini tushuntiring.
43.	O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalarini tushuntirib bering.

44.	O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tizimini yoritib.
45.	Milliy gvardiyaga harbiy xizmatga (xizmatga) qabul qilish tartibini tushuntirib bering.
46.	Milliy gvardiyaning huquqlari tushuntirib bering.
47.	Bojxona organlarining asosiy vazifalari haqida ma'lumot bering.
48.	Bojxona organlari tizimini aytib bering.
49.	Bojxona organlarida xizmatga qabul qilish va xizmatni o'tash to'g'risida ma'lumot bering.
50.	Bojxona organlarida xizmatni o'tash rejimini ta'minlash tartibini tushuntirib bering.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (01.05.2023 yilda qabul qilingan). – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2023 y.
2. O. Husanov. Konstitutsiyaviy Huquq. – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2025 y. – 640 bet.
3. Sh. Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2025 y. – 248 bet.
4. X.T. Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2025 y. – 632 bet.
5. S.A. Muratayev, B.T. Musayev, D.R. Artikov. Ma'muriy huquq va protsess. – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2024 y. – 392 bet.
6. Mualliflar jamoasi. Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya. – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2023 y. – 232 bet.
7. V. Topildiyev. Fuqarolik huquqi. – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2022 y. – 592 b.
8. I.I. Nasriyev, B. Hamroqulov, D.S. Dovudova, S. Safoyeva, Z. Esanova, F. Muhitdinova, L.I. Achilova. Fuqarolik protsessual huquqi. – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2025 y. – 400 bet.
9. M. Usmanova, SH. Gaziyeu, B. Yarashev. Mehnat Huquqi. – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2024 y. – 384 bet.
10. X.R. Ochilov. Jinoyat Huquqi. – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2025 y. – 176 bet.
11. M.X Rustambayev va mualliflar jamoasi. Jinoyat-protsessual huquqi. – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2025 y. – 648 bet.
12. M.H. Rustambayev va mualliflar jamoasi. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Advokatura – Toshkent, Yuridik adabiyotlar publish. 2024 y. – 448 bet.

Internet saytlari

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs>
2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz)
3. O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali (data.egov.uz) - ochiq ma'lumotlar to'plamlari va API xizmatlari.
4. Elektron hukumat portali (egov.uz)

Tuzuvchi:

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi

R.Mirzayev

A.M.Xalxo'jayev

